

**GIYOHVAND MODDALAR HAMDA PSIXOAKTIV MODDALARNING
ILMIY-NAZARIY O'RGANISH JIHATLARI**

*IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar
kafedrası katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

Haydarov Ilhom Yusupovich

*IIV Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar
kafedrası 3-o'quv kursi 329-guruh kursanti, safdor*

Burxoniddinov Nurmuhammad Halimjon o'g'li

ANNOTATSIYA: mazkur ilmiy maqolada o'simlik manbalaridan olingan giyohvand moddalar hamda sintetik yo'l bilan yaratilgan psixoaktiv moddalarning ilmiy-nazariy o'rganish jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy jamiyatda giyohvandlik vositalarining turlari, ularning kelib chiqish manbalari va inson organizmiga ta'sir etish mexanizmlari tobora murakkablashib bormoqda. Shu sababli, o'simlik va sintetik moddalarning nazariy asoslarini chuqur o'rganish nafaqat farmatsevtika va tibbiyot uchun, balki sotsiologiya, kriminologiya, psixologiya hamda huquqshunoslik sohalari uchun ham dolzarb masala hisoblanadi.

Maqolada tabiiy (o'simlik) giyohvandlik vositalarining kimyoviy tarkibi, ularning biofaollik xususiyatlari, etnobotanik manbalari va tarixiy qo'llanilishi bo'yicha nazariy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sintetik giyohvandlik vositalarining paydo bo'lish sabablari, kimyoviy strukturalarining o'zgaruvchanligi, yangi psixoaktiv moddalar (NPS) fenomeni hamda ularning ijtimoiy va huquqiy oqibatlari tahlil etiladi.

KALIT SO'ZLAR: o'simlik giyohvandlik moddalari, sintetik giyohvandlik vositalari, nazariy tadqiqot, psixoaktiv modda, huquqiy-etnik masalalar

АННОТАЦИЯ: в данной статье представлен комплексный анализ научно-теоретических аспектов изучения лекарственных средств растительного происхождения и синтетически созданных психоактивных веществ. Актуальность исследования обусловлена тем, что в современном обществе виды лекарственных средств, источники их происхождения и механизмы воздействия на организм человека становятся всё более сложными. Поэтому глубокое изучение теоретических основ изучения растительных и синтетических веществ является актуальной задачей не только для фармации и медицины, но и для социологии, криминологии, психологии и права. В статье рассматриваются теоретические подходы к химическому составу природных (растительных) лекарственных средств, их биоактивным свойствам, этноботаническим источникам и истории применения. Проанализированы причины появления

синтетических лекарственных средств, изменчивость их химической структуры, феномен новых психоактивных веществ (НПВ) и их социальные и правовые последствия.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: растительные лекарственные средства, синтетические лекарственные средства, теоретические исследования, психоактивные вещества, правовые и этические вопросы.

ANNOTATION: this article provides a comprehensive analysis of the scientific and theoretical aspects of the study of drugs of plant origin and synthetically created psychoactive substances. The relevance of the study is that in modern society, the types of drugs, their sources of origin and mechanisms of action on the human body are becoming increasingly complex. Therefore, a deep study of the theoretical foundations of plant and synthetic substances is an urgent issue not only for pharmacy and medicine, but also for the fields of sociology, criminology, psychology and law. The article considers theoretical approaches to the chemical composition of natural (plant) drugs, their bioactive properties, ethnobotanical sources and historical use. The reasons for the emergence of synthetic drugs, the variability of their chemical structures, the phenomenon of new psychoactive substances (NPS) and their social and legal consequences are also analyzed

KEY WORDS: herbal drugs, synthetic drugs, theoretical research, psychoactive substance, legal and ethical issues

KIRISH

Giyohvand moddalar muammosi nafaqat sog‘liqni saqlash, balki ijtimoiy va huquqiy sohalarda ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. An‘anaviy o‘simlik manbalaridan olinadigan psixoaktiv moddalar bilan bir qatorda, so‘nggi yillarda sintetik giyohvandlik vositalari (“yangi psixoaktiv moddalar”, “legal highs”) tobora keng tarqalmoqda. Masalan, United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC) hisobotida sintetik moddalarning ishlab chiqarilishi va tarqalishi global darajada oshib borayotgani qayd etilgan. Tadqiqot nazariy jihatdan qanchalik tayyor va tizimli o‘rganilgan? Tadqiqot metodlari, usullari va ularga qo‘yiladigan talablar qanday? Ushbu maqolada aynan shu savollar markazida turamiz. O‘rganishimizning maqsadi — o‘simlik va sintetik giyohvandlik vositalari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazishning nazariy asoslarini sistematik tarzda ko‘rib chiqishdir.

Giyohvand moddalar muammosi nafaqat sog‘liqni saqlash tizimi uchun, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarda ham dolzarb global muammo sifatida e‘tirof etilmoqda. Giyohvandlik inson organizmiga jiddiy zarar yetkazib, jismoniy va ruhiy sog‘lomlikni izdan chiqaradi, shuningdek, ijtimoiy hayotda beqarorlik, jinoyatchilikning oshishi, oilaviy muammolar va ma‘naviy qadriyatlarning yemirilishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida xavfli ko‘rinishda

namoyon bo‘lib, ularning ijtimoiy faolligini pasaytiradi, ma’naviy inqirozga olib keladi hamda jamiyatning intellektual salohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, giyohvand moddalar muammosi milliy xavfsizlik va davlat siyosati darajasida ham dolzarblik kasb etadi. Chunki giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi transmilliy jinoyatchilik, kontrabanda, korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar bilan bevosita bog‘liq. Bu esa nafaqat sog‘liqni saqlash tizimiga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga tahdid soladi. Shu sababli, giyohvandlikka qarshi kurash kompleks yondashuvni, ya’ni ilmiy-tadqiqot ishlari, profilaktika, ma’naviy tarbiya, huquqiy nazorat va xalqaro hamkorlikni birgalikda olib borishni talab etadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, giyohvand moddalar muammosini o‘rganish jarayoni tibbiyot, biologiya, kimyo, sotsiologiya va huquqshunoslik kabi turli sohalar integratsiyasini talab qiladi. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar nafaqat moddalarning kimyoviy tarkibi va fiziologik ta’sirini o‘rganish, balki ularning ijtimoiy ildizlari, tarqalish sabablari va oldini olish strategiyalarini ishlab chiqish bilan ham bevosita bog‘liqdir.

ASOSIY QISM

Giyohvandlik vositalari— maxsus ro‘yxatga kiritilgan va davlat tomonidan nazoratga olingan, giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi sintetik vosita (preparat) lar va o‘simliklar. Giyohvandlik vositalari ro‘yxati BMTning 1988-yilgi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyasida, shuningdek giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasining qaroriga (1995-yil 1-aprel) 1-sonli ilovasida berilgan. Giyohvandlik vositalari sirasiga marixuana, nasha, kannabis smolasi, nasha moyi, qoradori, morfin, heroin, kodein, efedron, kokain va boshqalar kiradi. Giyohvandlik vositalaridan tibbiy maqsadlarda foydalanilganda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibga qat’iy rioya etilishi kerak. Giyohvandlik vositalari bilan erkin muomala qilish taqiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuniga binoan, ularni veterinariya, ilmiy va o‘quv maqsadlarida, ayniqsa, ekspertlik faoliyatida, jismoniy shaxslarga berish va boshqa maqsadlarda muomalada bo‘lish shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida ham ushbu turdagi moddalar bilan muomalada bo‘lish to‘g‘risida bir qator javobgarliklar belgilab o‘tilgan. Jumladan, giyohvandlik vositalarini o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay, oz miqdorda, g‘ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish uchun ma’muriy javobgarlikda belgilangan (O‘zR MJK, 56-modda). O‘zbekiston Respublikasi JKda tarkibida giyohvandlik vositalari bo‘lgan ekinlarni ekish yoki yetishtirish (270-modda), qonunga xilof ravishda egallash (271-

modda), o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo'natish (273-modda), giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga jalb etish (274-modda), ularni ishlab chiqarish yoki foydalanish qoidalarini buzish (275-modda), o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (276-modda) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'simliklardan olingan psixoaktiv moddalar tarixan qadimgi davrlardan beri insoniyat tomonidan foydalanib kelinmoqda. Masalan, ma'lum o'simlik alkaloidlari (kokain, tropan alkaloidlari va boshqalar) — tabiiy manbadan olingan giyohvand moddalardir. Tadqiqot jihatidan o'simlik moddalari bilan ishlashda bir qancha nazariy jihatlar e'tiborga olinadi:

- tabiiy modda-metabolitlar xilma-xilligi va biologik faolligi, etnobotanik ma'lumotlar va an'anaviy foydalanish tajribasi (madaniy kontekst)
- fitokemik tahlil metodlari, modda izolyatsiyasi va identifikatsiyasi;
- huquqiy-etnik jihatlar: o'simlik moddalarning ma'lumot bazalari, qonunchiligi, sug'urtalash va biomuhofaza jihatlar.

Tadqiqot nazariy tayyorgarlik jihatdan, manba tanlash, namunalarni yig'ish, laboratoriya metodlari, axloqiy rozilik va ma'lumotni tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Sintetik giyohvandlik vositalari yoki yangi psixoaktiv moddalarning o'rganilishi ham nazariy jihatdan muhim. Masalan, **“synthetic drugs”** deb ataladigan moddalarning xavfi ular aslida qonunchilik chegaralaridan chiqib ketgan va nazorat qilinmaydigan yangi kimyoviy tuzilmalarga ega.

Tadqiqot nazariy jihatdan quyidagi omillarga e'tibor qaratadi:

- sintetik moddalarning kimyoviy strukturasi o'rganish, ularning analoglari, metabolizmi va ta'siri;
- psixofarmakologik va giyohvandlik potentsiali: masalan, psixoz, hush o'zgarishi, surunkali zararlar;
- huquqiy va ijtimoiy jihatlar: sintetik moddalarning tez tarqalishi, cheklovlar, nazorat usullari;
- metodologik jihatlar: sintetik moddalarning tarkibini aniqlash, sifat nazorati yo'qligi, laboratoriya metodlari, ma'lumot bazasi cheklanganligi.

Ikkala manba turini — o'simlik va sintetik — nazariy jihatdan tadqiq qilishda ba'zi umumiy uslubiy jihatlar mavjud:

- tadqiqot mavzusining aniq belgilanishi; (tahlil qilinadigan modda, manba, olimlik soha)
- adabiyot tahlili: mavjud ilmiy ishlar, huquqiy hujjatlar, epidemiologik ma'lumotlar;
- namunalarni yig'ish va tayyorlash: o'simlik moddalari uchun ekin, o'simlik qismi, ekstraksiya;
- sintetik moddalari uchun laboratoriya namunalari, kimyoviy tahlil;

-metodologiya tanlovi: sifatli va miqdoriy tahlil, biofaollik testlari, psixologik o'lchashlar;

- axloqiy va huquqiy jihatlar: tajriba usullari, rozi bo'lish, manbalarni himoya qilish, reglamentlar;

- ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish: statistik usullar, korelatsiyalar, sabab-natija munosabatlari.

Tadqiqot olib borishda duch kelinadigan bir qancha muammolar nazariy jihatdan alohida ahamiyatga ega:

- o'simlik moddalari bilan ishlashda manba xilma-xilligi, o'simlik navlari va sharoitlari natijasida faollik farqlari;

- sintetik moddalarda struktura tez o'zgarishi: qonunchilikdan oldin paydo bo'lishi, ma'lumotlar bazasining yetishmasligi;

- etnobotanik ma'lumotlarning ishonchliligi va zamonaviy ilmiy talabga javob berishi

- laboratoriya va maydon tadqiqotlari o'rtasidagi moslik xavfsizlik va axloqiy normativlarning yetishmasligi, insonlarga va jamiyatga potentsial xavflar;

- ma'lumotlarning cheklanganligi: uzun muddatli ta'sirlar; individual farqliliklar.

Nazariy tayyorgarlik muvaffaqiyatli bo'lsa, keyingi bosqich — **amaliy tadqiqot**. Bu jihatda o'simlik va sintetik moddalar bo'yicha amaliy tadqiqot yo'nalishlari: modda izolyatsiyasi, biofaollik sinovlari, xavfsizlik tahlili, epidemiologik o'rganish. Masalan, o'simlik moddalari farmatsevtik muolajalar uchun potentsial manba bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, sintetik moddalarning tarqalishi va noto'g'ri foydalanilishi jamiyat sog'lig'i jihatidan muhim bo'lib, ularni nazorat qilish va tadqiq qilish ham amaliy jihatdan zarur:

* Xavf-omillarni aniqlash: sintetik moddalarning dozalari, tarkibi, ta'siri;

* Ilgari surish: profilaktika, ta'lim, huquqiy chora-tadbirlar;

* Tadqiqotning ijtimoiy-huquqiy tomoni: qonunchilik, jamoatchilik xabardorligi;

* Tadqiqot ma'lumotlari asosida siyosat va strategiyalar ishlab chiqish;

* Sintetik giyohvandlik vositalari: nazariy jihatlar.

Tadqiqot nazariy jihatdan quyidagi omillarga e'tibor qaratadi:

* sintetik moddalarning kimyoviy strukturasini o'rganish, ularning analoglari, metabolizmi va ta'siri psixofarmakologik va giyohvandlik potentsiali: masalan, psixoz, hush o'zgarishi, surunkali zararlar;

* huquqiy va ijtimoiy jihatlar: sintetik moddalarning tez tarqalishi, cheklovlar, nazorat usullari;

* metodologik jihatlar: sintetik moddalarning tarkibini aniqlash, sifat nazorati yo'qligi, laboratoriya metodlari, ma'lumot bazasi cheklanganligi.

Amaliy tadqiqotlarni olib boorish quyidagilar bilan bevosita bog'liq bo'ladi:

1. Xavf omillarni aniqlash: sintetik moddalarning dozalari, tarkibi, ta'siri;
2. Ilgari surish: profilaktika, ta'lim, huquqiy chora-tadbirlar;

3. Tadqiqotning ijtimoiy-huquqiy tomoni: qonunchilik, jamoatchilik xabardorligi;
4. Tadqiqot ma'lumotlari asosida siyosat va strategiyalar ishlab chiqish.

XULOSA

Mazkur ilmiy maqolada o'simlik manbali giyohvandlik moddalari va sintetik giyohvandlik vositalari bo'yicha tadqiqotlarning nazariy jihatlarini tahlil qilindi. O'simlik moddalari biologik xilma-xilligi va an'anaviy tajribasi bilan ajralib turadi, tadqiqot usullari esa fitokemik tahlil, etnobotanika va laboratoriya metodlarini o'z ichiga oladi. Sintetik moddalarda esa kimyoviy strukturaning tez o'zgarishi, biofaollikni baholashdagi murakkabliklar va huquqiy-ijtimoiy jihatlar muhim rol o'ynaydi. Nazariy jihatdan tadqiqot istiqbollari va muammolari aniqlab olindi: **manba tanlovi, metodologik tanlov, axloqiy masalalar, ma'lumotlarning cheklanganligi.**

Tadqiqot nazariy tayyorgarligi amaliy yo'nalishga o'tishda ustuvor ekanligi ta'kidlandi. Kelgusida ushbu yo'nalishda chuqurlashtirilgan ilmiy-tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik, metodlarni modernizatsiya qilish va huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish lozimligi bildirildi.

Tadqiqotda nazariy metodologiyaning asosiy tamoyillari – manba tanlash, tahlil usullarini aniqlash, eksperimental xavfsizlikni ta'minlash va etnik me'yorlarga rioya etish masalalari yoritildi. Maqola shuningdek, giyohvandlik vositalarini o'rganish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar, ilmiy ma'lumotlarning yetishmasligi, qonunchilikdagi noaniqliklar va tadqiqotchilarning nazariy tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq jihatlarini ochib berildi.

Yakuniy xulosa sifatida shunin aytib o'tish lozimki, giyohvand moddalari bo'yicha nazariy tadqiqotlarning tizimli yondashuv asosida olib borilishi, multidisiplinar integratsiya va xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlab o'tishimiz muhim. Ushbu nazariy asoslar keyinchalik amaliy tadqiqotlarni rejalashtirish, xavf omillarini baholash hamda giyohvandlikka qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensklopediyasi (2000-2005);
2. 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni;
3. Atanasov, A. G. et al. Natural products in drug discovery: advances and opportunities. Nature Reviews Drug Discovery, 20: 200-216 (2021). Nature (https://www.nature.com/articles/s41573-020-00114-z?utm_source.com);
4. The Synthetic Drug Phenomenon. UNODC (2023). BMT: Giyohvandlik va Jinoiyat Ofisi([https://www.unodc.org/res/WDR2023/WDR23_B3_CH1_Synthetic_drugs.p](https://www.unodc.org/res/WDR2023/WDR23_B3_CH1_Synthetic_drugs.pdf?utm_source.com)dfutm_source.com);

5. Synthetic Drugs. Better Health Vic. (Australia) fact sheet. Better Health Channel (https://www.betterhealth.vic.gov.au/health/healthyliving/syntheticdrugs?utm_source.com);

Foydalanilgan internet saytlari:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/giyohvandlik_vositalari;
2. <https://med24.uz/uz/bolezni/narkomaniya> ;
3. <https://sudex.uz/?p=7478> ;

